



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA  
VA MAKTAB  
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston  
Milliy Pedagogika  
Universiteti



No6(5)  
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

# M

# AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 344 sahifa,  
16-iyun, 2026-yil.

## **BOSH MUHARRIR:**

Karimova E'zoza Gapijanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

## **BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:**

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

## **TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI**

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik  
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik  
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor  
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor  
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)  
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)  
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)  
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)  
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)  
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)  
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent  
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor  
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor  
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)  
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent  
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti  
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor  
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)  
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent  
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori  
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari  
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

**Muassis:** “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

**Hamkorlarimiz:** O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

#### EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

#### DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

#### EDITORIAL BOARD MEMBERS:

**Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician**

**Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician**

**Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor**

**Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor**

**Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor**

**Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor**

**Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor**

**Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)**

**Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)**

**Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)**

**Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)**

**Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)**

**Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)**

**Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor**

**Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor**

**Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor**

**Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)**

**Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor**

**Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor**

**Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor**

**Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor**

**Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service**

**Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor**

**Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)**

**Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor**

**Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor**

**Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor**

**Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics**

**Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor**

**Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region**

**Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun**

**Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences**

**Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor**

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”  
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti  
Administratsiyasi huzuridagi Axborot  
va ommaviy kommunikatsiyalar  
agentligi tomonidan **№C-5669363**  
reyestr raqami tartibi bo'yicha  
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

# MUNDARIJA

Tinglovchilarga axloqiy-estetik tarbiya berishda notiqlik madaniyatini shakllantirishning samaradorlik ko'rsatkichlari .....	10
<i>Fazliddin Abdunabiyevich Abdurazaqov</i>	
Professor-o'qituvchilarning ilmiy-pedagogik salohiyatini xalqaro mezonlar asosida rivojlantirish yo'llari .....	15
<i>Maxmudov Qudratbek Shavkat o'g'li</i>	
Orfografik kompetensiyaning mohiyati va boshlang'ich sinflarda shakllanish bosqichlari .....	21
<i>Abduvaliyeva Nodira Alisherovna, Mo'minjonova Gulnoraxon Abdupatto qizi</i>	
Tabiiy fanlarni o'qitishda uch o'lchamli vizualizatsiyalarning boshlang'ich ta'limdagi ahamiyati .....	25
<i>Nabijonova Feruza Valijon qizi</i>	
Loyiha texnologiyasi asosida bo'lajak o'qituvchilarda ijtimoiy tashabbuskorlikni rivojlantirish mazmuni .....	28
<i>O'rinova Nilufar Muxammadovna</i>	
Sinfdan tashqari o'qish darslarida badiiy asar bilan ishlashning kompetensiyaviy yondashuv asosidagi metodikasi .....	32
<i>Qilichova Billura Yorqinxuja qizi, Homidov H. K.</i>	
Kasbiy-kommunikativ madaniyat fenomenining pedagogik talqini va rivojlanish tendensiyalari .....	37
<i>Tashpulatova Nodira Olimjon qizi</i>	
Tabiiy fanlarni o'qitishda kompetensiyaviy yondashuv .....	41
<i>Umbarova Nasiba Xolboy qizi</i>	
Xorijiy tillarni o'rganishda shaxs nutqining shakllanishida psixolingvistikaning ahamiyati .....	44
<i>Ahmedov Shavkat Asadilloevich, Ataboev Navruz Ihombek o'g'li</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida matnni tushunish va tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasi (PIRLS dasturi misolida) .....	47
<i>Abduraxmanova Charos Burxanovna</i>	
Lesson Planning in English Language Teaching at Technical Universities .....	51
<i>Aitbaeva Nursuliu Tairbekovna</i>	
Lingvistik intellekt asosida individual o'qitish yondashuvining samaradorligi .....	55
<i>Allanazarova Sadoqat Azimovna</i>	
Xorij tadqiqotlarida zamonaviy oila transformatsiyasida farzandlar taraqqiyotining ijtimoiy-psixologik asoslari .....	59
<i>Bo'riyeva Mahbuba Shavkatovna</i>	
Теоретико-методологические подходы к изучению эмоциональных концептов в литературе: (на материале английских и немецких фразеологизмов) .....	63
<i>Сайёра Улашевна Тагаева, Азиза Анкаевна Уразкулова</i>	
The Importance of Forming a Schedule for High School Students .....	67
<i>D. T. Atabayeva, X. I. Abduraymova</i>	
Milliy cholg'u ansambllari orqali o'quvchilar musiqiy dunyoqarashini shakllantirish .....	70
<i>Dadamirzayeva Gulshanoy To'lanjon qizi</i>	
Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida ma'naviy-axloqiy tarbiyaga yondashuvning texnologik xususiyatlari ...	75
<i>Jumanov Sherzod Saloyevich</i>	
Adabiyot darsliklari uchun yangi o'zbek adabiyoti namunalarini saralashning ilmiy-metodik asoslari .....	78
<i>Musaboyeva Zulfira Iqboljon qizi</i>	
Maktab geometriyasida ko'pyoqlilar mavzusini o'rganishning innovatsion usullari .....	83
<i>Pirlepesov Umrbek Baxtiyor o'g'li</i>	
Generativ AI vositalarining mustaqil ta'lim jarayonidagi didaktik funksiyalari .....	86
<i>Qahramonova Xumora Qahramonovna</i>	
O'quvchi-sportchilar uchun individual mashg'ulot yuklamalarini avtomatik rejalashtirish va optimallashtirish imkoniyatini yaratish ahamiyati .....	91
<i>Qosimov Faxriddin Jo'raqulovich</i>	



Когнитивный диссонанс как социально-психологический феномен в контексте высшего образования: теоретический анализ .....	95
<b>Мансурова Гульмира Рафазловна</b>	
Регуляторный произвол или необходимый порядок? Влияние новых регуляторных механизмов на свободу расследовательской журналистики .....	101
<b>Рауфова Озода</b>	
Qizlar tarbiyasida mahalla–oila–maktab hamkorligi mexanizmlari .....	105
<b>Choriyeva Dildora Ismat qizi</b>	
Oliy ta'lim muassasalarida jismoniy tarbiya mashg'ulotlarini individuallashtirishning samaradorligi: kompetensiyaviy yondashuv asosida .....	109
<b>Tangriyev Abdulkarim Tovashevich</b>	
O'qish savodxonligi darslarida matn bilan ishlash orqali o'quvchilarda muammoli vaziyatlarni hal etish ko'nikmalarini rivojlantirish texnologiyasi.....	114
<b>Boymurodova Nodirabegim Bahodir qizi</b>	
Raqamli transformatsiya sharoitida STEAM ta'limi orqali talabalarda tanqidiy fikrlash kompetensiyasini shakllantirish .....	120
<b>Kozimova Mehriniso Akbarali qizi</b>	
Oliy ta'limda kvest texnologiyasi yordamida fizika fanining murakkab tushunchalarini o'zlashtirish samaradorligini oshirish metodikasi.....	125
<b>O'rinboyeva Kumushoy Sultonbek qizi</b>	
Tasvirlarga raqamli ishlov berish texnologiyalari va ularning amaliy qo'llanilishi .....	129
<b>Sharipov Nodir Botir o'g'li</b>	
Management of Medical Emergencies in Outpatient Dental Clinics.....	133
<b>Adurazzoqov Kamoliddin, Umarov Maruf, Buzrukhoda Javohir</b>	
Psixologik farovonlikning asosiy komponentlari, ta'sir qiluvchi omillar va zamonaviy baholash usullari .....	138
<b>Aliyev Samariddin Murotali o'g'li</b>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqiy kompetensiyasini rivojlantirishning ilmiy-nazariy asoslari .....	142
<b>Boymurodova Sadoqat Istam qizi</b>	
O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimi.....	146
<b>Gadoymurodova Kamola Sunnatulloevna</b>	
Oilada bola tarbiyasining ahamiyati va uning shaxs kamolotiga ta'siri .....	151
<b>Galdiyeva Mehribon Durdiyevna, Oilimova Mushtariy Xaydarali qizi</b>	
Art-pedagogika vositasida boshlang'ich sinf o'quvchilarida estetik dunyoqarashni shakllantirishning pedagogik ahamiyati .....	154
<b>Gulboyev Akbar Tuxtyayevich</b>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ma'naviy tadbirlar orqali vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirish .....	158
<b>Homidov Husniddin Kupaysinovich, Yusupova Gulzor Yunusjon qizi, Norbekova Sevinch Musurmon qizi</b>	
Bone-Grafting Materials in Oral Surgery: Classification, Biological Properties, and Clinical Application .....	161
<b>Jumaqulova Mashhura Alishevovna, Buzrukhoda Javohir Davronovich</b>	
Mediatsiya va o'qib tushunish kompetensiyasi o'rtasidagi o'zaro aloqadorlik .....	166
<b>Karimova Dilyoraxon Raximjon qizi</b>	
Using STEM Technologies to Foster Rational Thinking in the Dentistry .....	169
<b>Khonimqulov Javlon, Burkhonova Zarafuz</b>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarini montessori metodikasi vositasida til o'rganish ko'nikmalarini shakllantirish usullari modeli.....	173
<b>Mahbuba Yusupova Rustam qizi</b>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda tayanch kompetensiyalarni integrativ yondashuv asosida shakllantirish metodikasining samaradorligi.....	177
<b>Nasimova N. Q.</b>	
Analysis of Scanning Techniques Used in Orthodontic Dentistry .....	182
<b>Nasrullayev Javlonbek Ta'atonovich, Rahimberdiyev Rustam Abdunosirovich</b>	
Zamonaviylik - ta'lim konsepsiyasida asosiy mezon sifatida .....	187
<b>Ochilova Gulnoza Odilovna</b>	

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS	O'qish savodxonligi darslarida xalq og'zaki ijodidan foydalanish metodikasi ..... 191 Qahhorova Sojida Bahodir qizi, Zokirov Javoxir G'aybullo o'g'li
	Diqqat va xotira jarayonlarida raqamli texnologiyalarning roli ..... 196 Salomova Nargiza Sattorovna
	Talabalarda kasbiy refleksiya rivojlanishiga ta'sir etuvchi psixologik omillarning empirik tahlili..... 200 Shukurova Nargiza Ikramovna
	Gimnastikachi qizlarda egiluvchanlik jismoniy sifatini rivojlantirish jarayonida shikastlanishlarning oldini olish ..... 205 Sultanova Musharafxon Xudoyqul qizi
	Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda ekologik bilimlarni raqamli texnologiyalar yordamida rivojlantirish... 210 Sayfetdinova Dildora Ikramitdinovna
	Maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishida shaxsga yo'naltirilgan texnologiyalardan foydalanishning o'ziga xos xususiyatlari, imkoniyatlari va yo'nalishlari ..... 216 Uralova Nurxon Maxadovna
	Naqshbandiya qadriyatlarini bo'lg'usi o'qituvchi shaxsini shakllantirishdagi o'rni..... 220 Xalmuxamedova Maxbuba Aslanovna
	Boshlang'ich ta'limda raqamli texnologiyalardan foydalanishning ilmiy-metodik asoslari ..... 223 Xo'jamberdiyeva Maftuna Norqobilovna, Sanaqulova Sevinch Baxtiyor qizi
	Developing Logical Thinking via the Use of STEM Technology ..... 226 Yarmuhammedov Nabijon Navruzovich, Burkhonova Zarafuz
	Jismoniy tarbiya darslarida innovatsion metodlardan foydalanishning ahamiyati ..... 229 Yo'ldoshboyeva Zulfiya Ravshan qizi, Jumayev Abdilxakim Turdiyevich
	Значение предмета физического воспитания и спортивной метрологии в физическом воспитании молодежи ..... 233 Маматкулов Равшанжон Солижонович
	Аксиологические аспекты диалога культур в романе Сухбата Афлатуни "Рай Земной" ..... 237 Чернова Татьяна Алексеевна, Худойназаров Сардорбек
	Maktab boshqaruvida ilmiy asoslangan yondashuvlarni joriy etishning pedagogik shart-sharoitlari..... 240 Akbutayeva Gulasal Uzoq qizi
	Features of Verbal and Non-Verbal Communication in Teaching Foreign Languages in Higher Education Institutions ..... 248 Gulnoza Aslamovna Azimkulova
	Chaenomeles Japonica (Thunb.) Lindl. Ex Spach mevalaridan ajratib olingan polifenol va pektin komplekslarining ichak mikrobiotasi, oksidlovchi stress va immun javobga ta'sirini molekulyar-biologik usullar asosida tadqiq etish ..... 251 Ergasheva Nigora G'ayratovna
	Contemporary Linguodidactic Trends in Teaching English in Higher Education ..... 259 Khudoyarova Ziyoda Maratovna
	Yuqori sinf o'quvchilarida tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishning muammo va imkoniyatlari..... 264 Layloxon Xabibullayeva Tursunali qizi
	Raqamli sport pedagogikasi va bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish omillari..... 269 Matvapayev Azizbek Gaibnazar o'g'li
	Sun'iy intellektga qaramlik: raqamli addiksiya evolyutsiyasining yangi bosqichi ..... 273 Mo'minxo'jayeva Zuhra Alimjon qizi
	Linguo-Cognitive Modeling of The Relationship Between Life and Death In Literary Texts: a Comparative Analysis (Based on 20 <sup>th</sup> -Century English and Karakalpak Works)..... 279 Najimova Perizad Arslanbay qizi
	Talabalar intellektual qobiliyatini rivojlantirishning didaktik imkoniyatlari ..... 283 Shodiyeva Charos Ravshan qizi
	Ta'limiy o'yinlar vositasida ko'zi ojiz bolalar nutqidagi kamchiliklarni korreksiyalashga qaratilgan mashg'ulotlarining asosiy bosqichlari ..... 286 Xaytova Farida Kuchkarovna



Raqamli va an'anaviy o'qish: qiyosiy tahlil.....	292
<i>Mashrapova Sevara Xabibovna</i>	
Mustahkam oila qadriyatlari va ularning zamonaviy jamiyat rivojiga ta'siri.....	296
<i>Soyibova Bonu O'tkir qizi</i>	
Sog'lom turmush tarzini shakllantirishning pedagogik mohiyati .....	301
<i>Xoliqov Farxod Karomatillo o'g'li</i>	
Boshlang'ich ta'limda raqamli texnologiyalar: sun'iy intellekt vositalaridan oqilona foydalanish metodikasi...	305
<i>Aminov Shavkatjon Sobir o'g'li, Abdusattarova Muhlisaxon Foziljon qizi, Berdiyaroova Jasmena Sherzodjon qizi</i>	
Boshlang'ich tayyorgarlik bosqichidagi dzyudochilarda koordinatsion qobiliyatlarni shakllantirishning samarali vositalari .....	311
<i>Jumanova Iroda Shokirjon qizi</i>	
Mediatsiya va o'qib tushunish kompEtensiyasi o'rtasidagi o'zaro aloqadorlik.....	315
<i>Karimova Dilyoraxon Raximjon qizi</i>	
Xorijiy tillarda yozma ish turlarini o'rganishning o'ziga xos jihatlari .....	319
<i>Omonova Sarvinoz</i>	
Can Duolingo Reduce Speaking Anxiety: A Literature-Based Analysis .....	322
<i>Qodirqulova Ra'no</i>	
Kommunikativ yondashuv asosida o'quvchilarning chet tilida muloqot qilish ko'nikmalarini takomillashtirish .....	326
<i>Sa'dullayeva Shahzoda Nuriddin qizi</i>	
Zamonaviy psixologning kasbiy kompetensiyasi: krizisli vaziyatlarda ishlash texnologiyalari.....	330
<i>Shirinov Otabek Tualovich</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishida shaxsga yo'naltirilgan texnologiyalardan foydalanishning o'ziga xos xususiyatlari, imkoniyatlari va yo'nalishlari .....	333
<i>Uralova Nurxon Maxadovna</i>	
Иммерсивные технологии в обучении русскому языку как иностранному: современные подходы и перспективы .....	337
<i>Абдусаламова Адига Каримджановна</i>	
Инновационная методика интенсивного обучения студентов филологического направления русскому языку в сопоставлении с узбекским языком .....	340
<i>Касимов А. Б.</i>	



# MEDIATSIYA VA O'QIB TUSHUNISH KOMPETENSIYASI O'RTASIDAGI O'ZARO ALOQADORLIK

Karimova Dilyoraxon Raximjon qizi  
Namangan davlat universiteti tayanch doktranti

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada mediatsiya va o'qib tushunish kompetensiyasi o'rtasidagi o'zaro aloqadorlik nazariy hamda amaliy jihatdan tahlil qilinadi. Zamonaviy ta'lim tizimida o'quvchilarning matnni anglash, tahlil qilish va uning mazmunini boshqalarga yetkazish ko'nikmalarini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Mediatsiya til vositachiligi sifatida axborotni bir shaxsdan boshqasiga tushunarli shaklda yetkazishni nazarda tutadi. Tadqiqot davomida mediatsiya jarayonining o'qib tushunish kompetensiyasini rivojlantirishdagi o'rni, ularning umumiy va farqli jihatlari hamda ta'lim jarayonidagi ahamiyati yoritilgan. Natijalar mediatsiya faoliyatining o'quvchilarda tanqidiy fikrlash, axborotni qayta ishlash va kommunikativ kompetensiyalarni rivojlantirishga xizmat qilishini ko'rsatadi.

**Kalit so'zlar:** mediatsiya, o'qib tushunish kompetensiyasi, kommunikativ kompetensiya, matn tahlili, til o'rganish, axborot vositachiligi, tanqidiy fikrlash, ta'lim texnologiyalari.

**Abstract:** This article analyzes the relationship between mediation and reading comprehension competence from both theoretical and practical perspectives. In the modern educational system, developing learners' abilities to understand, analyze, and convey the content of texts to others has become increasingly important. Mediation, as a form of language mediation, involves transferring information from one person to another in a clear and understandable manner. The study examines the role of mediation in the development of reading comprehension competence, highlights their common and distinctive features, and explores their significance in the educational process. The findings indicate that mediation activities contribute to the development of learners' critical thinking, information-processing skills, and communicative competence.

**Key words:** mediation, reading comprehension competence, communicative competence, text analysis, language learning, information mediation, critical thinking, educational technologies.

**Аннотация:** В данной статье анализируется взаимосвязь между медиацией и компетенцией понимания прочитанного с теоретической и практической точек зрения. В современной системе образования особое значение приобретает развитие у обучающихся навыков понимания, анализа текста и передачи его содержания другим людям. Медиация как языковое посредничество предполагает передачу информации от одного человека к другому в доступной и понятной форме. В ходе исследования раскрываются роль медиации в развитии компетенции понимания прочитанного, их общие и отличительные особенности, а также значение в образовательном процессе. Результаты показывают, что медиативная деятельность способствует развитию у обучающихся критического мышления, навыков обработки информации и коммуникативных компетенций.

**Ключевые слова:** медиация, компетенция понимания прочитанного, коммуникативная компетенция, анализ текста, изучение языка, информационное посредничество, критическое мышление, образовательные технологии.

## KIRISH

XXI asrda ta'lim tizimining asosiy maqsadlaridan biri o'quvchilarda axborotni izlash, tahlil qilish, baholash va undan samarali foydalanish kompetensiyalarini shakllantirishdan iboratdir. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi, globallashuv jarayonlarining kengayishi hamda xalqaro hamkorlikning kuchayishi natijasida insonlardan turli manbalardan olingan ma'lumotlarni anglash va ularni boshqalarga tushunarli shaklda yetkazish qobiliyati talab etilmoqda. Shu nuqtai nazardan, o'qib tushunish kompetensiyasi va mediatsiya zamonaviy ta'limning muhim tarkibiy qismlaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda.

O'qib tushunish kompetensiyasi shaxsning yozma matnlarni o'qish, mazmunini anglash, tahlil qilish, muallif g'oyasini aniqlash, xulosalar chiqarish hamda olingan axborotni amaliy faoliyatda qo'llash qobiliyatini ifodalaydi. Mazkur kompetensiya nafaqat til o'rganish jarayonida, balki barcha fanlarni o'zlashtirishda ham

muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki har qanday bilimni egallashning asosiy manbalaridan biri matn hisoblanadi. O'quvchi matn mazmunini to'liq anglay olmasa, undagi axborotni tahlil qilish, baholash va undan foydalanishda qiyinchiliklarga duch keladi. Shu sababli o'qib tushunish kompetensiyasini rivojlantirish bugungi kunda dunyo ta'lim tizimlarining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda.

### MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

So'nggi yillarda til ta'limida mediatsiya tushunchasi alohida ilmiy va metodik ahamiyat kasb etmoqda. Mediatsiya atamasi dastlab ijtimoiy va psixologik fanlarda vositachilik ma'nosida qo'llanilgan bo'lsa, keyinchalik lingvodidaktika va kommunikativ ta'lim nazariyasiga ham kirib keldi. Yevropa Kengashining CEFR Companion Volume (2020) hujjatida mediatsiya kommunikativ til kompetensiyasining muhim tarkibiy qismi sifatida e'tirof etilgan bo'lib, u shaxsning ma'lumot, tushuncha yoki g'oyalarni bir insondan boshqasiga yetkazish, murakkab axborotni soddalashtirish, matn mazmunini izohlash va tushuntirish, turli madaniy hamda til muhitlari o'rtasida vositachilik qilish qobiliyatini anglatadi. Mediatsiya jarayonida til foydalanuvchisi faqat axborotni qabul qiluvchi emas, balki uni qayta ishlovchi, moslashtiruvchi va boshqalarga yetkazuvchi faol subyekt sifatida namoyon bo'ladi.

Mediatsiya va o'qib tushunish kompetensiyasi o'rtasidagi bog'liqlik bevosita kognitiv hamda kommunikativ jarayonlar bilan izohlanadi. Har qanday mediatsiya faoliyatining muvaffaqiyati, avvalo, matnni to'g'ri tushunishga bog'liq. O'quvchi yoki talaba matn mazmunini chuqur anglamasdan turib, uni boshqalarga aniq va tushunarli shaklda yetkaza olmaydi. Shu bilan birga, mediatsiya faoliyati o'qib tushunish jarayonini yanada faollashtiradi, chunki o'quvchi matn mazmunini nafaqat qabul qiladi, balki uni tahlil qiladi, umumlashtiradi, qayta tuzadi va yangi kommunikativ vaziyatga moslashtiradi. Natijada o'qib tushunish ko'nikmalari yanada mustahkamlanadi va yuqori darajaga ko'tariladi.

Xalqaro baholash dasturlarida ham o'qib tushunish kompetensiyasiga alohida e'tibor qaratiladi. Jumladan, Programme for International Student Assessment (PISA) tadqiqotlarida o'quvchilarning matnlarni tushunish, ulardan foydalanish, tahlil qilish va baholash ko'nikmalari baholansa, Progress in International Reading Literacy Study (PIRLS) dasturida boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish savodxonligi darajasi o'rganiladi. Ushbu tadqiqotlar natijalari ko'rsatishicha, o'quvchilarning o'qib tushunish darajasi ularning keyingi ta'lim bosqichlaridagi muvaffaqiyati va hayotiy kompetensiyalarining shakllanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Mediatsiya esa mazkur kompetensiyalarni rivojlantirishning samarali vositalaridan biri sifatida qaralmoqda.

### TADQIQOT METODOLOGIYASI

Bugungi kunda chet tillari, ona tili va adabiyot fanlarini o'qitishda mediatsiyaga asoslangan topshiriqlarni joriy etish zarurati ortib bormoqda. Matnlarni qisqacha bayon qilish, konspekt tuzish, taqdimot qilish, ma'lumotlarni jadval yoki diagramma ko'rinishida ifodalash, matn mazmunini boshqa auditoriyaga moslashtirib tushuntirish kabi faoliyatlar mediatsiyaning amaliy ko'rinishlari hisoblanadi. Bunday topshiriqlar o'quvchilarning nafaqat o'qib tushunish kompetensiyasini, balki tanqidiy fikrlash, muloqotga kirishish, hamkorlikda ishlash va muammolarni hal qilish ko'nikmalarini ham rivojlantiradi.

Shu bois mazkur tadqiqotning maqsadi mediatsiya va o'qib tushunish kompetensiyasi o'rtasidagi nazariy hamda amaliy bog'liqlikni o'rganish, mediatsiyaning o'qib tushunish ko'nikmalarini rivojlantirishdagi o'rni va ahamiyatini aniqlash hamda ta'lim jarayonida ushbu yondashuvdan samarali foydalanish imkoniyatlarini tahlil qilishdan iborat. Tadqiqot natijalari zamonaviy kompetensiyaviy yondashuv asosida tashkil etilayotgan ta'lim jarayonlarida mediatsiyaning metodik imkoniyatlarini ochib berishga xizmat qiladi.

### TAHLIL VA NATIJALAR

Mediatsiya va o'qib tushunish kompetensiyasi zamonaviy kompetensiyaviy ta'limning o'zaro bog'liq bo'lgan muhim tarkibiy qismlari hisoblanadi. O'qib tushunish kompetensiyasi o'quvchining yozma matnlarni anglash, tahlil qilish, talqin etish va baholash qobiliyatlarini o'z ichiga olsa, mediatsiya ushbu jarayon natijasida olingan axborotni boshqa shaxslarga tushunarli shaklda yetkazish, qayta ishlash va moslashtirish faoliyatini ifodalaydi. Shuning uchun mediatsiya va o'qib tushunish kompetensiyasi bir-birini to'ldiruvchi hamda rivojlantiruvchi jarayonlar sifatida namoyon bo'ladi. Yevropa Kengashi tomonidan ishlab chiqilgan CEFR Companion Volume (2020) hujjatida mediatsiya kommunikativ til faoliyatining asosiy yo'nalishlaridan biri sifatida tavsiflanadi. Ushbu hujjatga ko'ra, mediatsiya jarayonida shaxs ma'lum bir matn, g'oya yoki axborotni boshqalar uchun tushunarli shaklda qayta ifodalaydi. Bunday faoliyatni amalga oshirish uchun esa, avvalo, matnning mazmuni chuqur anglanishi zarur. Demak, o'qib tushunish mediatsiyaning poydevori hisoblanadi. O'quvchi matndagi asosiy g'oyalarni, dalillarni va muallif nuqtayi nazarini to'liq tushunmas ekan, u mazkur ma'lumotlarni boshqalarga aniq va to'g'ri yetkaza olmaydi.



O'qib tushunish jarayoni bir necha bosqichlardan iborat. Dastlab o'quvchi matndagi til birliklarini taniydi va ularning ma'nosini anglaydi. Keyingi bosqichda matnning umumiy mazmuni shakllantiriladi, asosiy va ikkinchi darajali axborotlar ajratiladi hamda matn tarkibidagi mantiqiy bog'lanishlar aniqlanadi. Yakuniy bosqichda esa matn tanqidiy tahlil qilinadi va unga nisbatan shaxsiy munosabat bildiriladi. Mediatsiya aynan ushbu bosqichlarning barchasini o'z ichiga oladi, chunki axborotni boshqalarga yetkazish uchun uni chuqur anglash va qayta ishlash talab etiladi. Mediatsiya faoliyatining eng muhim jihatlaridan biri axborotni transformatsiya qilish hisoblanadi. Masalan, o'quvchi ilmiy matnni o'qib, uning mazmunini oddiy auditoriya uchun soddalashtirib tushuntirishi mumkin. Bunday vaziyatda o'quvchi matndagi murakkab terminlar va ilmiy tushunchalarni qayta ishlaydi, asosiy g'oyalarni saralaydi va yangi kommunikativ vaziyatga moslashtiradi. Bu esa o'qib tushunish kompetensiyasining yuqori darajada shakllanganligini talab qiladi. Shu sababli mediatsiya o'qib tushunishning eng yuqori kognitiv darajalaridan biri sifatida qaraladi.

Kognitiv psixologiya nuqtayi nazaridan mediatsiya va o'qib tushunish o'rtasidagi bog'liqlik axborotni qayta ishlash nazariyasi bilan izohlanadi. Ushbu nazariyaga ko'ra, inson o'qish jarayonida matndan olingan ma'lumotlarni xotirada mavjud bilimlar bilan bog'laydi, yangi bilimlarni shakllantiradi va ularni amaliy vaziyatlarda qo'llaydi. Mediatsiya jarayonida esa ushbu bilimlar qayta tashkil etilib, boshqalarga yetkazish uchun moslashtiriladi. Natijada o'quvchi matn ustida yanada chuqurroq ishlaydi va mazmunni yaxshiroq o'zlashtiradi. Mediatsiya faoliyatlari o'quvchilarning o'qib tushunish kompetensiyasini rivojlantirishda samarali pedagogik vosita hisoblanadi. Xususan, matnni qisqacha bayon qilish, annotatsiya yozish, referat tayyorlash, matn asosida taqdimot qilish, infografika yaratish va guruh muhokamalarida ishtirok etish kabi topshiriqlar mediatsiyaning amaliy ko'rinishlari sanaladi. Ushbu faoliyatlar o'quvchilarning matndan muhim axborotni ajratib olish, asosiy g'oyalarni umumlashtirish va ularni mantiqiy shaklda ifodalash ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Mediatsiyaning o'qib tushunish kompetensiyasiga ta'siri quyidagi yo'nalishlarda namoyon bo'ladi: Mazmunni chuqur anglash. Mediatsiya topshiriqlari o'quvchini matn mazmunini yuzaki emas, balki chuqur tahlil qilishga undaydi. Axborotni saralash. O'quvchi matndan asosiy va ikkinchi darajali ma'lumotlarni ajratishni o'rganadi. Umumlashtirish ko'nikmasi. Matnning asosiy mazmunini qisqa va aniq shaklda ifodalash qobiliyati rivojlanadi. Tanqidiy fikrlash. O'quvchi matndagi g'oyalarni baholaydi, dalillarni tahlil qiladi va xulosalar chiqaradi. Kommunikativ kompetensiya. Olingan axborotni auditoriyaga mos ravishda tushuntirish va yetkazish ko'nikmalari shakllanadi. Madaniyatlararo muloqot. Turli til va madaniyat vakillari o'rtasida axborot almashish imkoniyatlari kengayadi. Ta'lim amaliyotida mediatsiya va o'qib tushunish kompetensiyasi integratsiyasi, ayniqsa, chet tillarini o'qitishda muhim ahamiyat kasb etadi. O'quvchilar chet tilidagi matnlarni o'qib, ularning mazmunini ona tilida yoki boshqa shaklda ifodalash orqali bir vaqtning o'zida ham o'qib tushunish, ham mediatsiya kompetensiyalarini rivojlantiradilar. Masalan, ingliz tilidagi maqolani o'qib, uning mazmunini o'zbek tilida tushuntirish yoki qisqacha sharhlash mediatsiyaning samarali ko'rinishlaridan biridir. Shuningdek, mediatsiya faoliyatlari xalqaro baholash dasturlarida talab qilinayotgan funksional savodxonlikni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Bugungi kunda o'quvchilardan nafaqat matnni tushunish, balki undan amaliy vaziyatlarda foydalanish ham talab qilinmoqda. Mediatsiya aynan shu vazifani bajaradi, chunki u matn mazmunini real kommunikativ vaziyatlarga moslashtirish imkonini beradi. Shu sababli mediatsiya va o'qib tushunish kompetensiyasi o'rtasidagi o'zaro aloqadorlik zamonaviy ta'lim sifatini oshirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Natijada aytish mumkinki, mediatsiya o'qib tushunish kompetensiyasining rivojlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatuvchi, uning amaliy qo'llanilishini ta'minlovchi va o'quvchilarning yuqori darajadagi kognitiv hamda kommunikativ faoliyatini shakllantiruvchi samarali pedagogik mexanizm hisoblanadi. Shu bois ta'lim jarayonida mediatsiyaga asoslangan metod va topshiriqlardan tizimli foydalanish o'quvchilarning o'qish savodxonligini oshirish hamda ularni zamonaviy axborot jamiyatida muvaffaqiyatli faoliyat yuritishga tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

## XULOSA

Mediatsiya va o'qib tushunish kompetensiyasi zamonaviy ta'lim tizimida o'zaro uzviy bog'liq bo'lgan va bir-birini to'ldiruvchi muhim kompetensiyalar hisoblanadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, o'qib tushunish kompetensiyasi mediatsiya faoliyatining asosiy poydevorini tashkil etadi. Chunki har qanday mediatsiya jarayoni matn mazmunini to'liq anglash, undagi asosiy g'oyalarni aniqlash, axborotni tahlil qilish va qayta ishlashdan boshlanadi. O'quvchi matnni chuqur tushunmasdan turib, uning mazmunini boshqa shaxsga tushunarli va mantiqiy shaklda yetkaza olmaydi. Shu jihatdan o'qib tushunish mediatsiyaning zarur sharti sifatida namoyon bo'ladi. Shu bilan birga, mediatsiya o'qib tushunish kompetensiyasining yanada rivojlanishiga xizmat qiluvchi samarali pedagogik vosita ekanligi aniqlandi. Matnni qisqacha bayon qilish, umumlashtirish, sharhlash, izohlash va auditoriyaga moslashtirib yetkazish kabi mediatsion faoliyatlar o'quvchilarni matn bilan chuqurroq ishlashga undaydi. Natijada ular axborotni saralash, muhim g'oyalarni ajratib olish, dalillarni tahlil qilish va mantiqiy xulosalar chiqarish ko'nikmalarini rivojlantiradilar. Bu esa o'qib tushunish kompetensiyasining yuqori darajada shakllanishiga olib keladi.

Tadqiqot davomida mediatsiya faoliyatining o'quvchilarda tanqidiy fikrlash, kommunikativ kompetensiya, axborotni qayta ishlash va madaniyatlararo muloqot ko'nikmalarini rivojlantirishdagi ahamiyati ham aniqlandi. Mediatsiya o'quvchilarga nafaqat matn mazmunini tushunish, balki undan amaliy vaziyatlarda foydalanish, uni turli auditoriyalar ehtiyojlariga moslashtirish va samarali muloqot vositasiga aylantirish imkonini beradi. Bu esa zamonaviy ta'limning asosiy maqsadlaridan biri bo'lgan funksional savodxonlikni shakllantirishga xizmat qiladi. Shuningdek, xalqaro baholash dasturlari, jumladan, PISA va PIRLS tadqiqotlarida baholanayotgan o'qish savodxonligi ko'rsatkichlarini yaxshilashda mediatsiyaga asoslangan topshiriqlarning muhim o'rin tutishi kuzatildi. Matn mazmunini qayta ifodalash, taqdim etish va tushuntirishga qaratilgan faoliyatlar o'quvchilarning o'qib tushunish natijalarini sezilarli darajada oshirishga yordam beradi. Shu sababli mediatsiya kompetensiyasini ta'lim jarayoniga integratsiyalash zamonaviy pedagogikaning dolzarb yo'nalishlaridan biri sifatida qaralishi lozim.

Xulosa qilib aytganda, mediatsiya va o'qib tushunish kompetensiyasi o'rtasida mustahkam funksional va metodik bog'liqlik mavjud. O'qib tushunish mediatsiya faoliyatining asosini tashkil etsa, mediatsiya o'z navbatida o'qib tushunish kompetensiyasini rivojlantiruvchi va amaliyotga yo'naltiruvchi mexanizm vazifasini bajaradi. Shu bois umumiy o'rta ta'lim, professional ta'lim va oliy ta'lim tizimlarida mediatsiyaga asoslangan metodlardan keng foydalanish, o'quv dasturlariga mediatsion topshiriqlarni kiritish hamda o'qituvchilarning ushbu yo'nalishdagi metodik tayyorgarligini kuchaytirish ta'lim sifati va o'quvchilarning funksional savodxonligini oshirishga xizmat qiladi. Kelgusida mediatsiya va o'qib tushunish kompetensiyasi integratsiyasini turli yosh guruhlari hamda ta'lim bosqichlari kesimida empirik tadqiq etish ushbu yo'nalishdagi ilmiy izlanishlarni yanada boyitadi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Council of Europe. (2020). Common European Framework of Reference for Languages: Learning, Teaching, Assessment: Companion Volume. Strasbourg: Council of Europe Publishing.
2. Piccardo, E., & North, B. (2020). The Action-Oriented Approach: A Dynamic Vision of Language Education. Bristol: Multilingual Matters.
3. Grabe, W., & Stoller, F. L. (2022). Teaching and Researching Reading (4th ed.). London: Routledge.
4. Organisation for Economic Co-operation and Development (OECD). (2023). PISA 2022 Assessment and Analytical Framework. Paris: OECD Publishing.
5. Richards, J. C., & Rogers, T. S. (2022). Approaches and Methods in Language Teaching (4th ed.). Cambridge: Cambridge University Press.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
  - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
  - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
  - 13.00.03 Maxsus pedagogika
  - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
  - 13.00.07 Ta'limda menejment
  - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
  - 07.00.00 Tarix fanlari
  - 19.00.00 Psixologiya fanlari
  - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
  - 02.00.00 Kimyo fanlari
  - 03.00.00 Biologiya fanlari
  - 09.00.00 Falsafa fanlari
  - 10.00.00 Filologiya fanlari
  - 11.00.00 Geografiya fanlari



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

**Mas'ul muharrir:** Ramzidin Ashurov

**Ingliz tili muharriri:** Murod Xoliyorov

**Musahhih:** Alibek Zokirov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

---

**2026. №6(5)**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: № 136361.**

**Manzirimiz:** Toshkent shahar, Yunusobod tumani  
19-mavze, 17-uy.